



VIRTUAL MUZEYLARNING PAYDO BO'LISHI VA UNING AHAMIYATI

Usmanova Mukaddam Abdugapparovna

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada virtual muzey iborasini zamonaviy muzeyshunoslikka kirib kelishi, hozirgi kunda uning muhim bir yo'nalishga aylanganligi, uni to'g'ri qo'llanish variantlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Annotatsiya: *В данной статье представлена информация о вхождении словосочетания «виртуальный музей» в современное музейное дело, о том, что оно стало важным направлением, и также о вариантах его правильного использования.*

Annotation: *This article provides information about entering the word combination «virtual museum» in modern museology and that it became an important direction, and also about the options for its correct use.*

Kalit so'zlar: *virtual muzey, muzeyshunoslik, virtual ko'rgazma, ekspozitsiya, tomoshabin.*

Ключевые слова: *виртуальный музей, музеология, виртуальная выставка, экспозиция, аудитория.*

Key words: *virtual museum, museology, virtual exhibition, exposition, audience.*

“Muzei – bu nafaqat qimmatbaho san’at asarlarini to’plash, saqlash va ma’lum bir nozik ta’b egalari diqqatiga taqdim etishdan iborat, balki, uning asosiy vazifasi kommunikatsiya qilishdir. Bu vazifaga esa boshqa hamma vazifalar bo’ysundirilishi kerak”, – degan edi D.Porter.⁵

Hozirgi kunda muzey va jamiyatning o’zaro munosabatlaridagi muammolar yechimini topish maqsadida muzey materiallarini yetkazib berishning yangi va ancha oson yo’llarini topishga harakat qilinmoqda. Jumladan, madaniy-ma’rifiy faoliyatning noan’anaviy dasturlari ishlab chiqilmoqda, maxsus muzey strukturasi bilan shug’ullanish kabi vazifalar amalga oshirilib maxsus kasbiy malaka va differensial munosabat talab etadigan ayrim toifadagi tomoshabinlar uchun alohida e’tibor qaratilmoqda.

Muzeyga tashrif buyurayotgan ziyoratchilarga shunday muhit yaratish lozimki, uning tashrifi yodda qoladigan bo’lishi zarur. Kundan-kunga tomoshabinlarning talab va istaklari oshib borayotgan vaqtda ziyoratchilar muzeydan o’zi uchun biror yangilik olishi, o’tkazgan vaqti maroqli bo’lishi kerak. O’z-o’zidan kelib chiqadiki, muzey o’z tomoshabiniga g’amxo’rlik qilishi kerak. “Tomoshabinga g’amxo’rlik qilish” tushunchasi ilk bor AQSH da paydo bo’lib, dastlab bu g’oya do’kon va restoranlarda, yaqin yillardan boshlab esa muzey ishida ham qo’llanila boshlandi. Bu g’oyani amalga oshirish uchun avvalambor muzey xodimi o’zini tomoshabin o’rniga qo’yib ko’rishidan boshlanadi. Bu esa bir qarashda oson tuyulishi mumkin, aslida esa ancha murakkabdir. Har bir tomoshabin g’amini yeyish muzey rahbaridan tortib to farroshning ham doimiy ishiga aylanishi zarur. Ushbu vaziyatda muzey

⁵ Портер Д. Роль музея как средства коммуникации // Museum/ 1983. № 138. 10 б.



xodimlarining malakasini doimiy tarzda oshirib borish muhim o‘rin egallaydi. Ular tomoshabinni qanday bo‘lsa shunday qabul qilishi kerak. Tomoshabin talablarini qondirish uchun xodim birinchi o‘rinda o‘z auditoriyasini yaxshi bilishi va ular tilida gapira olishi, bir so‘z bilan aytganda ruhshunos ham bo‘lishlari kerak. Bularning barchasi tomoshabinlarni muzeyga jalb qilish va ular ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.⁶

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra muzey tomoshabinlari uch turga bo‘linadi:

Faktik tomoshabinlar – muzeyga kelgan tomoshabinlar;

Potensial tomoshabinlar – muzeyga jalb qilinmoqchi bo‘lgan tomoshabinlar;

Virtual tomoshabinlar – internet yoki pochta orqali muzey faoliyati va eksponatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘layotgan tomoshabinlar.

Ko‘pchilikning e‘tirof etishicha, virtual so‘zi “xaqiqiy, real” degan ma‘nolarni anglatadi. Vaholanki, “virtual” so‘zi qadimgi lotincha virtus — xayoliy, faraz qilish so‘zlaridan kelib chiqqanligini ko‘pchilik bilmaydi.⁷

1990-yillarda muzeyshunoslikka kirib kelgan “virtual muzey” iborasi bugungi kunga kelib zamonaviy muzeyshunoslikning butun boshli muhim bir yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Dastlabki yillarda bu ibora o‘quvchilar orasida garchi unchalik tushunarli bo‘lmasa-da, lekin chiroyli va yoqimli yangrar edi.⁸

Bugungi kunda virtual iborasini ommaviy axborot vositalarida tez-tez qo‘llanilayotganligini va halqaro internet tarmog‘ida “virtual muzey” nomi ostidagi veb-sahifalarning shiddat bilan ko‘payib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ularning ko‘pchiligi garchi saytning mazmuni va profili jihatdan virtuallikka va muzeyshunoslikka mos tushmasa-da, o‘zlarining nomlarini va manzillarini saqlab kelmoqdalar. Bu saytlarning aksariyatida virtuallik asosan oddiy foto-albomlar, bir necha fotosuratlar jamlanmasi orqali ifoda etiladi.⁹

Zamonaviy muzeyshunoslikda “virtual muzey” iborasining faqatgina ikkita to‘g‘ri qo‘llanilish varianti mavjud. Birinchisi, bu huquqiy-normativ hujjatlar va ma‘lum bir proekt asosida muzeyni va undagi eksponatlarni uch o‘lchamli elektron ko‘rinishda saytga joylashtirish. Bunda saytga tashrif buyuruvchi nafaqat eksponatlarning turli burchaklardagi ko‘rinishini, balki muzey binosining ham umumiy ko‘rinishi haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Ikkinchi, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish. Bunda muzeydagi eksponatlar elektron surat ko‘rinishida muzeyning zallarida turli texnologiyalar asosida namoyish etiladi. Bunda hozirgi kunda muzeylar uchun ishlab chiqarilayotgan turli zamonaviy qurilmalardan, moslamalardan (masalan, proyektorlar, elektron doskalar, prezentatsiyalar uchun mo‘ljallagan turli hajmdagi tik turuvchi ekranlardan) foydalanish mumkin.¹⁰

⁶ Воронцов Б. Забота о посетителях. Методы работы с аудиторией, не требующие больших затрат. / Музеи в период перемен: Материалы российского-британского семинара «Музеи Санкт-Петербурга в условиях рыночной экономики». СПб., 1997. 89-94 б.

⁷ Нишонов К.С. Музей иши тарихи ва назарияси. Т.: 2018й

⁸ Юренева Т.Ю. Музееведение. “Академпроект”, М. 2003

⁹ Грегорьева А. К основным проблемам музееведения. /Музееведение. Музеи мира: сб.науч.тр./ НИИ культуры. М. 1991

¹⁰ Разгон А.М. Место музееведения в системе наук.// Музей и современность: сб.науч.тр./ ЦМР. М. 1986



Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har qanday virtual ko'rgazmani tashkil etishda muzeyshunoslikda ko'rgazmalar tashkil etishning an'anaviy usullaridan voz kechib bo'lmaydi. Bu usullar, ya'ni ilmiy konsepsiya, badiiy loyihalash va ekpozitsiya ssenariysi ko'rgazma tashkil etishda hoh u virtual, hoh real bo'lsin bularsiz ularni tashkil etib bo'lmaydi. Bugungi kunga kelib, virtual panorama shaklida ko'rgazma tashkil etish real ko'rgazma tashkil etishdan ko'ra osonroq va soddaroq bo'ladi degan fikrni ilgari suradiganlar ham ko'plab uchramoqda. Vaholanki, virtual ko'rgazma tashkil etish ishni ikki baravar ko'paytiradi va ko'rgazmani tashkil etishda qatnashuvchilar sonini yana ikkita ko'paytiradi.¹¹ Misol uchun, oddiy ko'rgazma tashkil etish uchun ma'lum bir ilmiy guruh (ilmiy konsepsiya yaratish uchun), dizayner va bir necha texnik xodimlar ishtirok etsa, virtual ko'rgazmani yaratishda yana ikkita mutaxassis, kompyuter dizayneri (eksponatlarni suratga olish va ularga kompyuter yordamida sayqal berish uchun) va programmist- animator kerak bo'ladi.

So'nggi 20 yil ichida ilm-fanning jadal suratlar bilan rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Hozirda muzey o'zining ba'zi an'anaviy ko'rinishlarini o'zgartirishga muhtojlik sezmoqda. Gap bu erda muzeydagi eksponatlarning namoyishi va ular haqida tomoshabinga imkon qadar to'liq ma'lumot berish haqida ketmoqda.¹²

2003 yilda Daniyadagi Geologiya muzeyida tabiiy ofatlar ko'rgazmasi o'tkazilgan. Bunda har bir suratlar yonida ekran o'rnatilgan bo'lib, bu ekranda suratda tasvirlangan tabiiy ofatning video yoki animatsion ko'rinishlari namoyish etilgan. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, bunda tomoshabin nafaqat shu tabiiy ofatning suratini ko'radi, balki shu bilan birga uning qanday bo'lishi va uning oqibatlarini haqida ham tasavvurga ega bo'ladi.¹³

Dunyoning eng yirik muzeylaridan biri bo'lgan Londondagi Viktoriya va Albert nomidagi amaliy san'at muzeyining rahbari Roy Strong 1983 yilda muzey haqida o'z fikrini shunday bayon etgan: "Ba'zan keng auditoriyani qamragan holda ma'lumotlarni ommalashtirish talab etiladi. Shuning uchun biz butun tadbirkorligimizni ishga solib, ushbu dasturni bajarishimiz va shu vaqtning o'zida muzey ishi sifatini yuqori darajada saqlab qolishimiz lozim. Muzeylarimiz tomoshabinlarni hordiq chiqarishi, ularga informatsiya berish bilan birga jamiyatning madaniy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Ha, muzey aloqa vositasidir va shunday bo'lishi shart. Birinchi navbatda muzey ilmiy yondoshuv asosida ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan madaniy boyliklarni to'plash va saqlash ishlarini amalga oshirishi kerak. Chunki, bularsiz bilimlar bulog'i qurib qoladi".¹⁴

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, muzeyshunoslikning keyingi rivojida interaktiv ekpozitsiyalarni yaratish va axborotlarni yetkazishda zamonaviy manbalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

¹¹ Странский З. Понимание музееведения // музееведение. Музеи мира: Сб. науч. тр. / НИИ культуры. М. 1991

¹² Балаш А.Н. Частное коллекционирование памятников Улчского искусства в античном Риме. // Музей в современной культуре. Сб. науч. тр. / Санкт-Петербургская Академия культуры. Т.М. 147. СПб, 1997

¹³ Калугина Т.П. Общественное сознание и художественные музей // Музеи мира. Музееведение. М., 1991

¹⁴ Стронг Р. Музей и коммуникация // Museum. 1983. №138 9 б.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Портер Д. Роль музея как средства коммуникации // Museum/ 1983. № 138.
2. Воронцов Б. Забота о посетителях. Методы работы с аудиторией, не требующие больших затрат. / Музеи в период перемен: Материалы российского-британского семинара «Музеи Санкт-Петербурга в условиях рыночной экономики». СПб., 1997.
3. Нишонова К.С. Музей иши тарихи ва назарияси. Т.: 2018й
4. Юренева Т.Ю. Музееведение. “Академпроект”, М. 2003
5. Грегорьева А. К основным проблемам музееведения. /Музееведение. Музеи мира: сб.науч.тр./ НИИ культуры. М. 1991
- 6.Разгон А.М. Место музееведения в системе наук.// Музей и современность: сб.науч.тр./ ЦМР. М. 1986
7. Странский З. Понимание музееведения // музееведение. Музеи мира: Сб.науч.тр./ НИИ культуры. М. 1991
8. Балаш А.Н. Частное коллекционирование памятников Улческого искусства в античном Риме.// Музей в современной культуре. Сб.науч.тр. / Санкт-Петербургская Академия культуры. Т.М. 147. СПб, 1997
9. Калугина Т.П. Общественное сознание и художественные музей // Музеи мира. Музееведение. М., 1991
10. Стронг Р. Музей и коммуникация // Museum. 1983. №138